



**QASHQADARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

# **QASHQADARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI**

**2022- YIL  
YANVAR-MART**

2022- yilning yanvar-mart oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami **1441,7** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **94,6 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




# 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



2334

Bino va inshootlar  
qurish

322

Fuqarolik obyektlarini  
qurish

809

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2019- yil bilan solishtirganda o'sish sur'ati 124,9 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 67,4 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan 3,2 foizga kamaygan;


fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,3 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan 13,4 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 25,0 foiz ulushni tashkil etib, 1,0 foizga kamaygan.



## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.04.2021- y.	01.04.2022- y.	
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3360</b>	<b>3465</b>	<b>103,1</b>
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	858	896	104,4
Shahrisabz sh.	139	144	103,6
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	142	147	103,5
Dehqonobod	148	153	103,4
Qamashi	186	172	92,5
Qarshi	406	399	98,3
Koson	288	312	108,3
Kitob	129	131	101,6
Mirishkor	82	90	109,8
Muborak	187	185	98,9
Nishon	124	123	100,8
Kasbi	153	125	105,2
Chiroqchi	211	161	102,4
Shahrisabz	109	216	108,3
Yakkabog'	198	118	109,1



# 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Qarshi sh. (26,0)



Qarshi (11,5)



Koson (9,0)



## Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1441,7</b>	<b>304,4</b>	<b>827,1</b>	<b>310,2</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	436,6	166,7	234,3	35,4
Shahrisabz sh.	58,5	7,2	42,0	9,2
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	181,1	45,6	93,6	41,9
Dehqonobod	40,7		14,6	26,2
Qamashi	33,8		21,8	12,1
Qarshi	93,6	2,4	86,4	4,7
Koson	108,2	28,0	49,6	30,6
Kitob	88,0		55,1	32,8
Mirishkor	27,3		12,4	14,9
Muborak	57,2	5,6	37,2	14,3
Nishon	58,4		38,8	19,6
Kasbi	31,5		16,9	14,6
Chiroqchi	137,6	48,2	65,1	24,3
Shaxrisabz	40,9	0,1	24,7	16,1
Yakkabog'	48,6	0,4	34,6	13,6

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




2022- yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 304,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilga nisbatan 74,3 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko'rsatkich darajasidan 5,5 % punktga kamayib, 21,1 % ni tashkil etdi.


# Qurilish ishlari

## 2022- yil yanvar-mart oylari uchun



**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qarshi shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 38,2 % i yoki 2021- yilga nisbatan 2,1 martaga ko'paydi), Chiroqchi tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 35,1 % i yoki 2021- yilga nisbatan 14,5 martaga ko'paydi) va Koson tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 25,9 % i yoki 2021- yilga nisbatan 4,1 martaga ko'paydi ) ga to'g'ri keldi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 57,4 % i to'g'ri kelib, 2021- yil ko'rsatkichiga nisbatan 5,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 104,0 % ni tashkil etgan holda 827,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



57,4

2022- yil  
Yanvar-mart

51,6

2021- yil  
Yanvar-mart




**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Qarshi shahri (234,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 28,3 %), G'uzor tumani (93,6 mlrd. so'm yoki 11,3 %), Qarshi tumani (86,4 mlrd. so'm yoki 10,4 %) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **21,1 %** ni tashkil etdi yoki **310,2 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2021- yilga nisbatan **97,4 %** ni tashkil etdi.




### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **46,2 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1395,5 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **3,2 %** va **96,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-mart



2022- yil yanvar-mart



Nodavlat mulk

# Mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart oylarida



	Qurilish ishlari, mlrd so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd.so'm	ulushi,% da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1441,7</b>	<b>16,6</b>	<b>1,2</b>	<b>1425,1</b>	<b>98,8</b>
<i>shaharlar:</i>					
<b>Qarshi sh.</b>	<b>436,3</b>	16,6	3,8	419,7	96,2
Shahrisabz sh.	58,5			58,5	100
<i>tumanlar:</i>					
G'uzor	181,1			181,1	100
Dehqonobod	40,7			40,7	100
Qamashi	33,8			33,8	100
Qarshi	93,6			93,6	100
Koson	108,2			108,2	100
Kitob	88,0			88,0	100
Mirishkor	27,3			27,3	100
Muborak	57,2			57,2	100
Nishon	58,4			58,4	100
Kasbi	31,5			31,5	100
Chiroqchi	137,6			137,6	100
<b>Shahrisabz t.</b>	<b>40,9</b>			<b>40,9</b>	<b>100</b>
Yakkabog'	48,6			48,6	100



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi  
2022- yil yanvar-mart oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **65,3 %** i yoki 941,2 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**19,6 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 184,7 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **19,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 470,0 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **49,9 %** ni tashkil etdi.

**49,9 %**

**30,5 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 286,5 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **30,5 %** ni tashkil etdi.




# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan,% da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1441,7</b>	<b>94,6</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	436,3	121,2	30,1
Shahrisabz sh.	58,5	59,8	4,7
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	181,1	59,2	8,9
Dehqonobod	40,7	101,1	3,1
Qamashi	33,8	118,2	2,4
Qarshi	93,6	77,6	8,5
Koson	108,2	147,1	6,7
Kitob	88,0	110,2	6,9
Mirishkor	27,3	216,5	2,4
Muborak	57,2	41,3	4,1
Nishon	58,4	111,2	3,6
Kasbi	31,5	66,3	3,0
Chiroqchi	137,6	158,1	8,4
Shahrisabz	40,9	119,6	2,7
Yakkabog'	48,6	109,3	4,5

*\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 4,5 % ni tashkil etib, 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,3 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,1 % punktga kamayib, 67,5 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,5% punktga kamayib, 28,0 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 17,8 % ni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 23,2 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 82,2 % (23,2 % punktga ko'paydi).

## ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2021- yil  
yanvar-mart



2022- yil  
yanvar-mart



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilga nisbatan 3,5 % punktga ko'paydi va 48,0 % ni tashkil etdi. Qolgan 52,0 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilga nisbatan 3,5 % punktga kamaydi.

Hajmi  
131,7 mlrd. so'm

ulushi % da

Hajmi  
147,1 mlrd. so'm

48,0

2022- yil  
yanvar-mart

2021- yil  
yanvar-mart

44,5

52,0

2022- yil  
yanvar-mart

2021- yil  
yanvar-mart

55,5

Yirik qurilish  
tashkilotlari  
ulushi

Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar  
ulushi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni: (75) 221 32 47